

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO MUNOSABATLARINING DASTLABKI O'N YILLIK TARIXI VA MOHIYATI

Abdullayev Xaitboy Anorboy o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi
khaitboytheabdullah0505@gmail.com +998930705105

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10245649>

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishganidan so'ng nafaqat qo'shni va qardosh xalqlar bilan, balki dunyoning eng yetakchi davlatlari bilan ham aktiv munosabatlarni yo'lga qo'ydi. Dunyoning eng ravnaq topgan davlatlari diyorumiz suverenitetini hech qanday istisnalarsiz tan oldi. Ushbu tezisda yurtimizning XX asrdagi (1991-2000) AQSH, Xitoy Xalq Respublikasi (XXR), Hindiston va Korea Respublikasi davlatlar bilan bo'lgan aloqalari va ularning mazmun-mohiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy aloqalar, diplomatik aloqalar, elchixonona, konsullik.

Kirish: Dunyo xaritasi XX asrning so'ngi o'n yilligida sezilarli darajada o'zgardi. Bunga SSSR ning parchalanishi hamda Chexoslovakiyaning bo'linishi sabab bo'ldi. Xaritada o'nlab yangi davlatlar paydo bo'ldi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi ham bor edi. Mamlakatimiz mustaqilligidan so'ng ona yurtimizni o'z siyosiy qarashlari tomon og'dirmoqchi bo'lgan davlatlar harakatni boshlab yubordi. Bazilari mavjud iqtisodiy resurslardan oqilona foydalangan holda, ikki tomon uchun ham manfaatli kelishuvlar yoki shartnomalar imzolashga harakat qilgan bo'lsa, boshqalari mintaqada o'z siyosiy ta'sirini kuchaytirmoq uchun harakat qildi. Anashu maqsad sari intilgan davlat Amerika Qo'shma Shtatlari hisoblanadi. Hindiston va Korea Respublikasi esa manfaatli kelishuvlar uchun harakatda bo'lgan bo'lsa, XXR ham siyosiy ta'sirini kuchaytirishga, ham manfaatli iqtisodiy kelishuv uchun harakat qildi.

O'zbekiston-AQSH. Amerika Qo'shma Shtatlari bizning suverenitetimizni eng birinchilardan bo'lib tan olgan davlatlar qatoriga kiradi. Bill Klinton davridagi davlat kotibining O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifidan so'ng ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. Bu tarixiy hodisa 1992-yilning dastlabki oltmush kunligida sodir bo'ldi. Mazkur tashrifdan bir oy o'tib, ya'ni 1992-yil martda poytaxtimizda AQSH elchixonona o'z faoliyatini boshladi. Davlatning bunchalik harakatidan maqsad, yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur mintaqada saqlanib qolgan rusiyabonlarning ta'sirini kamaytirgan holda o'z tasiri doirasini kengaytirish va jahon hamjamiyatiga o'zini yordamini ayamaydigan qilib ko'rsatish edi. Bill Klintoning o'zi, Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqilligi, barqarorligi va ravnaqidan manfaatdorligini 1996-yil iyunda, I. Karimovning AQSH ga qilgan tashrifi vaqtida ta'kidlaydi. Xuddi shu yili O'zbekistonning AQSH dagi elchixonasi ochildi. 1997-yil noyabrda ikkinchi muddat saylangan Bill Klinton rafiqasi Hillary Klinton O'zbekistonga tashrif buyurdi. Bu tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi samarali aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ammo, keyinchalik tomonlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarga e'tibor qaratildi. Chunonchi, 1999-yilda O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi tovar aylanmasi 282 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekiston AQShdan bug'doy, xalq iste'mol mollari, asbob-uskunalar sotib oladi. Eksport asosan paxta tolasidan iborat. AQShdagi turli firma va kompaniyalarning O'zbekiston bilan muvaffaqiyatli hamkorligi, delegatsiyalar almashuvi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga imkon beradi¹.

O'zbekiston-Hindiston. Hindiston mamlakatimizning eng yaqin strategik hamkoridir. Toshkentda AQSH elchixonasi ochilgan vaqtda (1992-yil mart) ikki mamlakat

o'rtasida diplomatik aloqalarni o'rnatish bo'yicha bayonnoma tuziladi. Lekin undan avval I. Karimov 1991-yil avgustda Hindistonga birinchi rasmiy tashrif bilan boradi. Davlatlarning bir-biriga qilgan tashrifida asosan iqtisodiy hamkorlik to'g'risida kelishuvlarga erishiladi. Shunga o'xshash bitim 1993-yilda, I. Karimovning Hindistonga qilgan rasmiy tashrifi vaqtida tuziladi. Tomonlar iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy yordam ko'rsatishga kelishib olishadilar. 1994-yil Dehlida 1992-yil tashkil etilgan konsullik elchixonaga aylantirildi². Tomonlar faqatgina bular bilan cheklanib qolgani yo'q. 1993-yilda ikki davlat kelishuvi asosida, buyuk bobokalonimiz, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi keng nishonlandi.

O'zbekiston-Korea Respublikasi va Xitoy. Korea Respublikasi 1991-yil dekabr oyida bizning mustaqilligimizni rasman tan olgan. Diplomatik aloqalar esa qolgan davlatlarga nisbatan ertaroq (1992-yilning yanvar oyida) o'rnatilgan. Bu kelishuv ikki tomon uchun ham tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki, rasmiy aloqalar o'rnatilgan yilning o'zida Toshkentda Koreya ta'lim markazi o'z faoliyatini boshlagan. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikda asosan iqtisodiyot va ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan

1991-yil 27-dekabr, Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy Osiyo yuragi hisoblanmush O'zbekistonning mustaqilligini tan oldi. Mazkur iqtisodiyoti yuksak-yuksaklarga cho'zilgan davlat bilan diplomatik aloqalar 1992-yil yanvar oyida o'rnatilgan. 1992-yil 15 oktabrda Toshkentda XXR elchixonasi o'z faoliyatini boshlaydi. 1995-yil 6 mayda Pekinda O'zbekiston elchixonasi ochildi. XXI asrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 3 marta (1992, 1994, 1999) rasmiy tashrif bilan Xitoyda bo'ldi³. 1995-yilda XXR hukumati boshlig'i Li Penning yurtimizga rasmiy tashrif bilan kelgan. Xitoyning yuritgan xalqaro munosabatlari, uning mintaqadagi maqsad va harakatlari qolgan davlatlarnikidan nisbatan dadilroq hamda aniqroq bo'lganligini yoritib berdi. Davlat bu mintaqaga o'z ta'sirini o'tkazishga qiladigan harakatidan tashqari iqtisodiy shartnomalar tuzish uchun harakat qildi. Chunki qancha ko'p davlat bilan hamkorlikka erishsa, shuncha ko'p miqdorda o'z mahsulotlarini sotadigan tashqi bozorga ega bo'lar edi.

Xulosa: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so'ng ko'plab davlatlar e'tibor markazida bo'ldi. Dunyo tan olgan davlatlarning yurtimiz bilan turli xil shartnomalar imzolashdan manfaatdorligi kishini quvontiradi. Qanday maqsadda biz bilan shartnoma imzolashga harakat qilishidan qat'iy nazar, davlatimiz o'z siyosiy qarashidan og'ishmagan holda siyosat yuritdi.

References:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/AQSh_%E2%80%94_O%CA%BBzbekiston_munosabatlari
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Hindiston_munosabatlari
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Xitoy_Xalq_Respublikasi_munosabatlari